

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Fil.60.02  
RAQAMLI ILMUY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**RAFIQJON ZARIPOV ERGASHBOY O'G'LI**

**MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKİSTONDA TIL SIYOSATI:  
BILINGVİZM VA PLURALİNGVİZM**

**10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi**

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Andijon – 2021**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Contents of dissertation of sciences of the doctor of philosophy (PhD) on  
philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Zaripov Rafiqjon Ergashboy o'g'li**

Mustaqillik yillarda O'zbekistonda til siyosati: bilingvism va pluralizingvism.....	3
--	---

**Zaripov Rafiqjon Ergashboy Ugli**

Language policy in Uzbekistan during the years of independence: bilingualism and pluralinguism.....	25
--	----

**Зарипов Рафикжон Эргашбай угли**

Языковая политика в Узбекистане в годы независимости: билингвизм и плюралингвизм.....	43
--	----

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

**List of published works**

Список опубликованных работ.....	48
----------------------------------	----

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Fil.60.02  
RAQAMLI ILMUY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**RAFIQJON ZARIPOV ERGASHBOY O'G'LI**

**MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKİSTONDA TIL SIYOSATI:  
BILINGVİZM VA PLURALİNGVİZM**

**10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi**

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Andijon – 2021**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.PhD/Fil1484 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Andijon davlat universiteti veb-sahifasi ([www.adu.uz](http://www.adu.uz)) hamda «Ziyonet» Axborot ta'lim portalı ([www.zyonet.uz](http://www.zyonet.uz))da joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Mengliyev Baxtiyor Rajabovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Nabiyeva Dilora Abduhamidovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Abdurahmonova Muqaddas Tursunaliyevna**  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent


**Yetakchi tashkilot:**

**Farg'onha davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.Fil.60.02 **raqamli** ilmiy kengashning 2021-yil **27 "dekabr** soat **10<sup>00</sup>** dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: **170100**, O'zbekiston Respublikasi, Andijon shahar, Universitet ko'chasi 129-uy. Telefon/faks: 0 (374) 223 88 30, e-mail: [agsu\\_info@edu.uz](mailto:agsu_info@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (**104** raqam bilan ro'yxatga olingan). (O'zbekiston Respublikasi, Andijon shahar, Universitet ko'chasi 129-uy. Tel.: 0 (374) 223 88 14).

Dissertatsiya avtoreferati 2021-yil **16 "dekabr** kuni tarqatildi.  
(2021-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasи).



**Shaxabitdinova Sh.H.**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
f.f.d., professor

**Usmanov F.F.**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, f.f.d.

**Umarxodjayev M.E.**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi  
Ilmiy seminar raisi, f.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida til hodisalarini boshqa ijtimoiy hodisalar bilan bog‘liq holda yorituvchi lingvistik tadqiqotlar XX asr boshlarida Fransiya, Rossiya, Chexiya, AQSh kabi mamlakatlarda vujudga kela boshladi. Tilni ijtimoiy institutlar va jamiyat evolyutsiyasi bilan birga o‘rganish, til va jamiyat, lingvistik vaziyat, ijtimoiy va kommunikativ tizim, kommunikativ kompetensiya, lingvistik kod, kodni o‘zgartirish, ikkitillilik, ko‘ptillilik, til siyosati, adabiy til, milliy tillar, til taraqqiyoti modellari masalalari olimlarning diqqat markazida bo‘ldi. Ushbu g‘oyalar XX asr boshlarida yetuk tilshunoslar tomonidan ilgari surilib, bu boradagi qarashlar nazariy bayon qilingan. XX asrning 50-yillardan keyin qayd etilgan jihatlarni o‘rganish lingvistikaning asosiy masalalari sifatida e’tirof etilib, yirik tadqiqotlarning vujudga kelishiga zamin bo‘ldi. XX asrning ikkinchi yarmida yuqorida masalalar yuzasidan qilingan tadqiqotlarda eksperimental tekshirishga o‘tish, aniq faktlarni matematik asoslar vositasida tavsiflash, izchillik, ma’lumot to‘plashga jiddiy e’tibor berish, faktlarni miqdoriy va statistik tahlil qilish kabi xususiyatlar ustunlik qildi.

XXI asrga kelib til siyosati muammolarini ilmiy-nazariy va amaliy o‘rganish dunyo tilshunosligida keng tus oldi. Ijtimoiy hayotda davlat tilidan foydalanish, davlat tilini muhofaza qilish, uning qo‘llanishini nazorat qilish hamda “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonun talablarini buzganlik uchun javobgarlikni ta’minalash masalalarini tartibga solish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda va ushbu maqsadlar yo‘lida ko‘p mamlakatlarda davlat tili haqida maxsus qonunlar qabul qilinmoqda. Ayrim mamlakatlarda til masalalari Respublika Konstitutsiyasida aks ettirilgan. Ushbu jihatlar til siyosati muammolarining yanada chuqur tadqiq etilishiga olib kelmoqda. Globallashuv jarayonida dunyodagi millatlar, xalqlar, jamoalarning muloqotini kuzatish, taraqqiyotning tilga ta’siri, tilning rivojlanishga ta’siri masalalarini yoritish, svilizatsiya jarayonida olamning lisoniy manzarasi (ko‘rinishi), Yer shari aholisi o‘rtasida ko‘p ishlatalayotgan tillar va ularning keng qo‘llanilish omillari, bilingvism, pluralizingvismning lingvistik xususiyatlarini ilmiy tadqiq etish katta ahamiyat kasb etmoqda.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonning til siyosati, mamlakatdagi lingvistik vaziyat, til siyosati modellari tadqiqi, bilingvism va multilingvism hodisalari yuzasidan qator ishlar amalga oshirilgan. Binobarin, barcha ilmiy yo‘nalishlar qatorida tilshunoslikda ham “...davlat tilini rivojlantirishga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini qo‘llab-quvvatlash, bu sohada xalqaro hamkorlikni amalga oshirish vazifasi”<sup>1</sup>ning belgilanishi o‘zbek tilining taraqqiyot modellarini tadqiq etish bilan bog‘liq izlanishlar olib borish muhimligini ko‘rsatadi. Mamlakatimizda davlat tiliga e’tibor ma’naviyatga bo‘lgan e’tiborning ustuvor yo‘nalishlaridan biri darajasiga ko‘tarildi. Shu boisdan ona tilimizni asrab-avaylash, boyitish, undan amaliy foydalanish samaradorligini oshirish bilan birga o‘zbek tilining mustahkam qonuniy himoyasini ishlab chiqish, alifboni isloh etish, o‘zbek tili me’yorlarini zamon talablari asosida takomillashtirish

<sup>1</sup> “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2019-yil 21-oktabr. <https://lex.uz/uz/docs/4561730?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

kechiktirib bo‘lmas masalaga aylandi. Milliy qadriyatlarimiz, madaniy boyliklarimiz bilan birga ma’naviy yuksalishimizda, xalqimiz dunyoqarashining kengayishida ulkan ahamiyatga ega ona tilimizning mustaqillik yillardagi taraqqiyoti, respublikamizda olib borilgan til siyosati va bu sohada erishilgan yutuqlar hamda ayrim kamchiliklar, mamlakatimizdagi lisoniy vaziyat, ikkitillilik hodisalarining istiqlol yillardagi holati, o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi rivojlanish tendensiyasi, uning strukturasida yuz berayotgan lisoniy o‘zgarish singari masalalarni zamonaviy va ilmiy tamoyillar asosida tadqiq etish fanimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagи PF-4997-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari; 2017-yil 17-fevraldagи PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiytadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrdagi 984-son “Davlat tilini rivojlantirish departamenti to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”, 2020-yil 11-martdagи 139-son “O‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalgalashirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalgalashirishda ushbu dissertationi ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Tilning ijtimoiy hodisa sifatidagi xususiyati, jamiyat hayotidagi o‘rnii va taraqqiyoti masalasining turli jihatlari diqqat-e’tiborni hamisha o‘ziga tortib kelgan. Bu hol nafaqat lingvistika sohasiga tegishli, balki falsafa, sotsiologiya, psixologiya, etnografiya, siyosatshunoslik va, hatto, kibernetika fanlari uchun ham e’tiborga molikdir<sup>2</sup>. O‘tgan asrning 80-yillari, ayniqsa, 90-yillaridan boshlab xalqlarning milliy o‘zlikni anglash darajasi kuchayib, til muammolariga, davlat tili masalalariga bag‘ishlangan ilmiy ishlarning salmog‘i oshdi. Ularda til ijtimoiy hodisa sifatida tadqiq etilib, xususan, o‘zbek tili ham turli aspektlarda o‘rganildi.

<sup>2</sup> Абдуазизов А. Тиллар оламига саёҳат. – Тошкент, 1988; Алиев А., Содиков К. Ўзбек адабий тили тарихидан. – Тошкент, 1994; Адабий тил ва бадиий талкин. – Тошкент, 1987; Баскаков Н.А. Социолингвистический анализ языковой ситуации в регионе Средней Азии и Казахстане. – Нукус, 1992; Иброхимов А. Тил – тақдир демак. – Тошкент, 1990; Миртоғиев М., Махмудов Н. Тил ва маданият. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992; Мухиддинов Н.А. Она тилим – жону дилим. – Тошкент, 1998; Нематов Х., Бозоров О. Тил ва нутқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993; Хоназаров К. Тил ва дил. – Тошкент, 1991.

O‘zbek tilshunosligida til siyosati, bilingvism, pluralizingvism masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlarni M.Mirtojiyev<sup>3</sup>, N.Mahmudov<sup>4</sup>, M.Irisqulov, B.To‘chiboyev, E.Xudoyberdiyev, A.Nurmonov, E.Begmatov, H.Ne’matov, I.Qo‘chqortoyev, G.Raximov<sup>5</sup>, B.Karimov, Q.Xonazarov<sup>6</sup>, S.Shermuxamedov<sup>7</sup>, B.Karimov<sup>8</sup>, K.Mira’zamov<sup>9</sup>, J.Tulenov, B.Siddiqov, Z.G‘ofurov, A.Abdunabiyev, E.Yusupov, J.Mamashukurov<sup>10</sup>, M.Zokirov, Sh.Usmonova, Z.Ochilova singari tilshunos va faylasuflarimizning ishlarida ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, g‘arb tilshunos olimlari B.Shlayter, U.Fierman<sup>11</sup>, X.Shiffman<sup>12</sup>, M.Dikkens, I.Baldaflarning<sup>13</sup> monografiya va maqolalarida O‘zbekistondagi til siyosati, o‘zbek tilining mustaqillik davridagi rivojlanishi milliy taraqqiyot va millatlararo munosabatlar kontekstida yoritilgan.

Ushbu muammolar jahon tilshunosligida ham atroficha o‘rganilgan. Jumladan, Jan Baudouin de Courtenay, V.M.Jirmunskiy, B.A.Larin, V.M.Alpatov, Y.D.Desheriyev, J.Fishman, Ch.Ferguson, U.Ammon, A.I.Baskakov, E.D.Polivanov, N.F.Yakovlev, A.M.Selishev, V.M.Peshkov, J.P.Yakubinskiy, L.I.Jirkov, D.V.Bubrix, N.N.Poppe, N.K.Dmitriyev, A.M.Suxotin, K.K.Yudaxin, A.A.Leontev, A.E.Suprun, A.R.Luriya, E.M.Vreshchagin, L.S.Vigotskiy, U.Vaynrayx, Y.A.Jluktenko, Y.A.Zemskaya, X.M.Grigorevna, L.V.Shcherba, A.Zaleviskata, M.M.Mixaylov, A.Y.Sorokin, V.N.Teliya kabi olimlarning ishlarida qayd etilgan.

Tilning shakllanishi, taraqqiyoti va xususiyatlariga doir ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, til va jamiyat munosabati muammolarining tahlili va tadqiqiga ehtiyoj mavjud. Ayniqsa, huquqiy davlat qurish jarayonida davlat tilining amal qilish mexanizmlarini tadqiq etish alohida yondashuvni talab qiladi. Davriy matbuotda, ayrim ilmiy maqolalarda davlat tili muammolarining u yoki bu jihatlari tahlil etilsa-da, o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi rivojlanish muammolari yaxlit tarzda, ijtimoiy, lingvistik tahlil darajasida o‘rganilmagan.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi.** Tadqiqot Alisher Navoiy nomidagi

<sup>3</sup> Миртожиев М., Махмудов Н. Тил ва маданият. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б. 27.

<sup>4</sup> Маҳмудов Н. Тил. – Тошкент: Ёзувчи, 1998. – Б. 24.

<sup>5</sup> Раҳимов Ф. Инглиз тилининг Ўзбекистонда тарқалиши (социолингвистик ва прагматик жиҳатлар): Филол. фан. док. (DSc) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2017.

<sup>6</sup> Хоназаров Қ. Тил ва дил. – Тошкент: Ўзбекистон, 1991. – Б. 68; Хоназаров Қ. Мустақиллик ва ёшларни байналимал руҳда тарбиялаш. – Тошкент: Қатортол-Камолот, 1998; Хоназаров Қ. Мустақиллик ва миллий муносабатларнинг ривожланиши. – Тошкент, 2001. – Б. 44.

<sup>7</sup> Шермухамедов С. Ижтимоий тараққиётда миллатлараро алоқа маданиятининг аҳамияти. – Тошкент: Маънавият, 1998. – Б. 32.

<sup>8</sup> Каримов Б.Р. Миллат, инсон ва тил: тараққиёт муаммолари. – Қарши: Насаф, 2003. – Б. 131.

<sup>9</sup> Каримов Б., Мираъзамов К. Миллат равнақи ва тил муаммолари. – Тошкент: ФАН, 1993. – Б. 21.

<sup>10</sup> Мамашкуров Ж.А. Ўзбек тилининг давлат тили сифатида ривожланишининг ижтимоий-сиёсий ва маънавий асослари: Фалс. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – Б. 22.

<sup>11</sup> Fierman, William, 1991, Language Planning and National Development: The Uzbek Experience, Berlin /New York: Mouton de Gruyter & Co.

<sup>12</sup> Schiffman, Harold (ed.), 2012, Language Policy and Language Conflict in Afghanistan and its Neighbors: The Changing Politics of Language Choice, Leiden // Boston. Шиффман Х. Тил сиёсати ва Афғонистонда тиллар конфликти: тил танлашнинг ўзгарувчан сиёсати. – Бостон, 2012. – Б. 206-208.

<sup>13</sup> Ингеборг Балдауф. Шимолий Афғонистон ўзбекларининг тили, жойлашуви ва ўхшашлиги // ҚарДУ хабарлари. – Карши, 2015. – № 1. – Б. 66-79.

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbek tili sistemaviy tadqiqi” yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** o‘zbek tilining davlat tili sifatida shakllanish, amal qilish va rivojlanish yo‘llarini, O‘zbekistondagi lisoniy vaziyat, bilingvizm va pluralizingvizm hodisalarining lingvistik jihatini yoritishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

O‘zbekistondagi lisoniy vaziyatni sotsiolingvistik aspektda tekshirish;

mustaqillik davrida O‘zbekistondagi til siyosati, alifbo va imlo masalalarining lingvistik xususiyatlarini ochib berish;

o‘zbek tili taraqqiyoti yo‘lida qabul qilingan qonun hujjatlarini lingvistik tadqiq etish va ularda belgilangan me’yorlarga e’tibor qaratish, til normalari aks etgan hujjatlarda belgilangan majburiyatlarning ijrosi masalalarini kuzatish, e’tiborsiz qoldirilayotgan o‘rinnarni aniqlash;

o‘zbek tili taraqqiyotiga doir, til siyosati masalalari yoritilgan, bilingvizm va multilingvizm hodisalari tadqiq etilgan, sotsiolingvistik kuzatuvalar amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil etish;

rasmiy va jonli til o‘rtasidagi munosabatni sotsiolingvistik baholash;

mamlakatimizdagi ikkitillilik, ko‘ptillilik hodisalarini atroficha tadqiq etgan holda uning jahonda tarqagan turlari asosida tiplarga ajratish, bilingvizm, pluralizingvizmning individual va jamoaviy imkoniyatlarini o‘zbek sotsiumi xususiyatlari asosida ochib berish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik davri til siyosatining lingvistik muammolari, til sathlarining taraqqiyoti, undagi o‘zgarish – yangilanish va eskirishlar, til ichki strukturasi rivojlanishining yangi tendensiyalari olingan.

**Tadqiqotning predmetini** o‘zbek sotsiumidagi bilingvizm, pluralizingvizm hodisalarining sotsiolingvistik xususiyatlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda analiz va sintez, umumlashtirish, tasniflash, tavsiflash, qiyosiy tahlil, statistik hamda tizimli yondashuv kabi usullardan foydalanildi.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

globallashuv sharoitida dunyoning lisoniy qiyofasini aniqlash, jahon tillari holatini o‘rganish, tillar haqidagi aniq ma’lumotlarni olish, lingvistik xaritalar tuzish, tillarning o‘zaro munosabatini aniqlash, tillarning internet uchun mo‘ljallangan versiyalarini shakllantirishda til taraqqiyotini, shu tilda so‘zlashuvchilar, yoshlar nutqi, vaziyat, real holatlar bilan uyg‘unlashtirish zarurati lingvistik asoslar bilan dalillangan;

globallashuv va svilizatsiya jarayonida o‘zbek tili o‘z mavqyeini ilmiy, qonuniy mustahkamlab, yangicha mezonlar asosida taraqqiy etayotganligi lingvistik asoslanib, til siyosatining tolerantlik, inson manfaatlari ustuvorligi, milliy mezonlar va huquqiy asosga ega modeldagagi ko‘rinishda shakllanayotganligi dalillangan;

mukammal bo‘limgan alifboni qo‘llashning millat hayotidagi savodxonlik, imlo muammolari bilan bog‘liq til me’yorsizligi kabi salbiy oqibatlari asoslanib, imlo me’yorlarini takomillashtirishning lingvistik, grafik, orfografik va punktuatsion zarurati ochib berilgan;

bilingv, pluralingvlarning jamiyatdagi individual afzallikkari kognitiv rivojlanish, til bilimi, kommunikativ kompetensiya, akademik ko'rsatkichlar, ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy manfaatlarda ekani, jamoaviy ustunligi esa ijtimoiy-madaniy muvofiqlashuv, rivojlanish va umumijtimoiy o'sishda ko'rinishi asoslangan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

yangi davr sivilatsiyasi va uning dunyo lisoniy qiyofasiga ta'siri, O'zbekistondagi lisoniy vaziyatning o'rganilganlik darajasi va shu jihatdan yuzaga kelayotgan sotsiolingvistik muammolar yoritilgan;

O'zbekistonda yangi til siyosatining shakllanish omillari sotsiolingvistik aspektida dalillangan;

“Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi, ahamiyati va takomillashtirilish zarurati olib berilgan, mustaqillik davrida O'zbekistondagi alifbo va imlo masalalari, uning sotsiolingvistik muammolari va ularning yechimlari asoslangan;

jahon tilshunosligida bilingvizm, pluralingvizm hodisalarining tadqiqi hamda mustaqillik yillarida ularning O'zbekistonda tarqalishi va o'rganilishi yuzasidan kuzatuvlar olib borilgan, bilingvizm, multilingvismning madaniyatlararo muloqotdagi ahamiyati olib berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tahlilga tortilgan materiallar o'zbek adabiy tili tabiatini va O'zbekistondagi lisoniy vaziyatdan kelib chiqqan holda xulosalar qilish imkonini bergenligi, ularning asosliligi, metodologik mukammalligi, qo'yilgan masalalarining aniqligi, til siyosatida va bilingvizm, pluralingvizm hodisalarini olib berishda amalda isbotlangan manbalarga tayanilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O'zbekistonda til siyosatining zamonaviy modellarini shakllantirishda, o'zbek tili taraqqiyotining innovatsion strategiyalarini yaratishning nazariy asoslarini ishlab chiqishda, sotsiolingvistika yo'nalishida tadqiqotlarni amalga oshirishda ilmiy-nazariy manba sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati amaliy filologiya bo'limlari: sotsiolingvistika, lingvovidaktika, lingvokulturologiyaning fan sifatida o'qitilish jarayonida dastur, reja tuzish hamda mavzularni bayon etishda manba vazifasini o'tashi bilan izohlanib, falsafa, tarix, sotsiologiya, siyosatshunoslik sohalarida “O'zbek tili taraqqiyotining tarixiy xususiyatlari”, “Davlat tilining davlat va jamiyat qurilishidagi o‘rni” va shu kabi mavzularda o'qitilishi, davlat va jamiyat qurilishi muammolari bilan shug‘ullanadigan mutaxassislarga tavsiya etilishi, bilingvlar nutqini kuzatishda, ikkitillilik va ko'ptillilik hodisasini yoritishda foydalanish, ushbu hodisalar tadqiqi jarayonida, turli tahliliy va nazariy tadqiqotlarda qo'llanishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Mustaqillik yillarida O'zbekistonda til siyosati: bilingvizm va pluralingvizm tadqiqi yuzasidan erishilgan ilmiy natijalar asosida:

O'zbekistonda til siyosatining zamonaviy modellarining shakllantirilishi va o'zbek tili taraqqiyotining innovatsion strategiyalarini yaratishning nazariy asoslari ishlab chiqilishi yuzasidagi xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Davlat tilini rivojlantirish departamenti faoliyatida tegishli me'yoriy-

huquqiy hujjatlar loyihamalarini ishlab chiqishda samarali foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Davlat tilini rivojlantirish departamentining 2020-yil 4-dekabrdagi №30-15-08-son ma'lumotnomasi). Natijada, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktyabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-son Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrdagi "Davlat tilini rivojlantirish departamenti to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 984-son, 2020-yil 11-martdagи "O'zbek tili va adabiyoti bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 139-son qarorlarida belgilangan masalalarning ijrosi ta'minlangan.

Respublikamizdagi lisoniy vaziyatning sotsiolingvistik o'rganilishi; O'zbekistonda yangi til siyosatining shakllanishi; "Davlat tili to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi, ahamiyati va takomillashtirilishi yuzasidagi xulosalarda qo'llangan atamalardan 2017–2018-yillarda amalga oshirilgan OT-A1-018 "O'zbek tili va uning tarjimasi bilan bog'liq elektron va bank-moliya terminlarining ko'p tilli lug'atlarini yaratish" mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 15-dekabrdagi №89-03-5283-son ma'lumotnomasi). Natijada ushbu terminlar lug'atning boyitilishiga va qiymatining oshishiga xizmat qilgan.

O'zbek tili taraqqiyoti, o'zbek tilining davlat tili maqomiga ega bo'lishi, davlat tilining millat hayotida tutgan o'rni, til siyosati va o'zbek tilining ilmiy tadqiqiga doir xulosalardan 5221000 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) bakalavr ta'lim yo'nalishi talabalari uchun yozilgan, 2018-yilda "Tafakkur bo'stoni" nashriyotida nashr qilingan, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan "Hozirgi o'zbek tili" darsligida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 15-dekabrdagi №89-03-5283-son ma'lumotnomasi). Natijada til va nutqning o'zaro munosabatga kirishuvi milliy mezonlar asosida yoritilgan, zamonaviy modellar bilan taraqqiy etayotgan o'zbek tili, uning birliklarining til va nutq munosabatidagi ahamiyati manbada keltirilgan faktlar asosida ochib berilgan.

O'zbek tilini rivojlantirishning ustuvor yo'llari, milliy tilimizga bo'lgan e'tiborning kuchaytirilish omillari, til taraqqiyotining svilizatsiya jarayonidagi yangicha modellarini shakllantirilish tamoyillari, respublikamizda kompyuter lingvistikasini taraqqiy ettirish zarurati yuzasidagi xulosa va qarashlardan bajarilishi 2018-2020-yillarga mo'ljallangan BV-Atex-2018-(143) raqamli "Ko'zi ojiz shaxslar uchun kompyuter texnikasidan foydalanish, matnlarni o'qish va yozish imkonini beruvchi o'zbek tiliga asoslangan gapiruvchi dasturiy ta'minot va ovoz sintezatorini ishlab chiqish" mavzusidagi amaliy grant loyihasida foydalanildi. (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2021-yil 7-sentyabrdagi №04/1-1488-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'zbek tilining rivojida, milliy tilimizga bo'lgan

e'tiborni kuchaytirishda, til taraqqiyotining svilizatsiya jarayonidagi yangicha modellarining shakllantirilishida respublikamizda kompyuter lingvistikasining rivojlanishi, nutqni matnga, matnni nutqqa aylantiruvchi dasturlarning yaratilishi muhim ahamiyat kasb etishi asoslab berildi.

Svilizatsiya jarayonida olamning lisoniy manzarasi, o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, globallashuv jarayonida o'zbek tilini rivojlantirish tamoyillari yuzasidagi xulosalardan 2020-yil 21-oktyabr kuni "O'zbekiston 24" radiokanalni orqali efirga uzatilgan "21-oktyabr – O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun" eshittirishining bayram sonida manba sifatida foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston 24" teleradiokanalni" davlat unitar korxonasining 2020-yil 11-dekabrdagi №01-09-550-son ma'lumotnomasi). Natijada globalizatsiya jarayonida tillarning rivoji, taraqqiyotning tilga ta'siri, tilning rivojlanishga ta'siri, svilizatsiya jarayonida olamning lisoniy manzarasi, globallashuv jarayonida o'zbek tilini rivojlantirish masalalari haqidagi ma'lumotlar jamoatchilikka yetkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 15 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, ulardan 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsyaning umumiyyajmi 150 sahifani tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Tadqiqotning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'naliishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natjalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natjalarni amaliyatga joriy qilish, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsyaning "**O'zbekistondagi lisoniy vaziyat va uning sotsiolingvistik o'r ganilish muammolari**" deb nomlanuvchi birinchi bobida svilizatsiya va uning dunyo lisoniy qiyofasiga ta'siri, jahon tillarining bugungi globallashuv jarayonidagi holati, olamning lisoniy manzarasida o'zbek tilining qiyofasi, mustaqillik arafasida O'zbekistondagi lisoniy vaziyat va til muammolari, o'zbek jamoatchiligining til erkinligi yo'lidagi harakatlari, O'zbekistondagi lisoniy vaziyatning sotsiolingvistik o'r ganilganlik darjasini va shu jihatdan yuzaga kelayotgan muammolar o'r ganilgan. Bobning "Yangi davr svilizatsiyasi va uning dunyo lisoniy qiyofasiga ta'siri" deb nomlangan birinchi bo'limida dunyodagi millatlar, xalqlar, jamoalarning o'zaro muloqoti, globallashuv jarayonida tillarning rivoji, taraqqiyotning tilga ta'siri, tilning rivojlanishga ta'siri, svilizatsiya jarayonida olamning lisoniy manzarasi, Yer yuzida mavjud tillar va ularning holati, Yer shari aholisi o'rtasida keng qo'llanayotgan tillar,

bu tillarning keng qo'llanilishiga ta'sir etayotgan omillar, texnika tili sifatida qaralayotgan tillar, tillarning taraqqiyoti yoki inqiroziga ta'sir ko'rsatayotgan zamonaviy omillar, tillarning taraqqiyot modellari, mamlakatlarda olib borilayotgan til siyosati, olamning lisoniy manzarasida o'zbek tilining qiyofasi masalalari tahlil qilingan.

XXI asrda dunyoning ijtimoiy-kommunikativ voqeligida tillarning mavqeyini o'rganish, zamonaviy svilizatsiya tendensiyalari tarkibini hisobga olgan holda diskursiv amaliyotlar va lingvistik hodisalarining ijtimoiy-gumanitar tomonini tahlil qilish dolzarb masalalar sirasida e'tirof etila boshlandi. Zamonaviy globallashgan dunyoda til hodisalarini ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar va ular bilan hamohang ravishda yuzaga keladigan muammolar bilan birga o'rganish ko'p jihatdan turli munosabatlarni o'rnatish, til va kommunikatsion xususiyatlarni belgilashga yordam beradi.

Ayni vaqtida dunyoda yetti mingga yaqin til borligi rasmiy manbalarda qayd qilingan. Hozirda ushbu tillarning faqatgina 50 dan ziyodrog'i faol qo'llaniladi. Qolganlaridan esa ma'lum hududdagi kichik etnik guruqlar, jamoalar foydalanadi. YUNESKO xalqaro tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, hozirda dunyoda 6 912 ta tirik til mavjud, ammo ularning katta qismi yo'qolish arafasida. Shu davrga qadar 516 ta til dunyo tillari qatoridan chiqib ketgan. Shuningdek, 2 500 dan ortiq til yo'q bo'lish xavfi ostida turgan til sanaladi<sup>14</sup>.

Uchinchi ming yillikning boshlanishi bilan tadqiqotchilar, tahlilchilar hamda sotsiologlar dunyo miqyosida tillarni kelgusida nimalar kutayotganligi, holati, ishlashi, qamrovi haqidagi bashoratlarni, ko'plab farazlarni taqdim eta boshladilar. D. Kibbi ta'kidlaganidek: "Ikkita strategiya zamonaviy tadqiqotchilar orasida juda mashhur. Ulardan biri "erkin bozor" nazariyasini aks ettiradi. Bu tendensiyada davlat tuzilmalarining asosiy tillari xalqaro aloqalarda "bozor ulushi"ga intilishi hisobga olinadi, boshqasi – "atrof-muhitni muhofaza qilish" deb ataladigan nazariya, ozchiliklarning tillarini himoya qilishga qaratilgan"<sup>15</sup>.

Dunyoda tillarni real vaziyatda tadqiq etish va ularning holati haqida xulosalar berishda sotsiolingvistik izlanishlarni ko'paytirish va amaliy tadqiqotlarga keng e'tibor qaratish lozim. Ma'lum bir tilning globalizatsiya jarayonida qay yo'sinda taraqqiy etayotganligini aniqlash uchun ushbu tilda so'zlashuvchilarning nutqiy faoliyatları hamda zamonaviy o'zgarishlarning millatning tafakkuriga ta'siri va bu o'zgarishlar jarayonining tilda aks etishi masalalarini aniqlash til tadqiqida ilmiy o'zgarishlarga yo'l ochadi. Qayd etilgan jihatlar asosida olamning lisoniy manzarasidagi tillarning nufuzini o'rganish muhim. Xususan, keltirilgan mezonlar asosida o'zbek tili tadqiqotda o'rganildi va globallashuv jarayonida o'zbek tili taraqqiyoti yuksalib borayotganligi asoslab berildi. O'zbek tili 0,7 foiz jahon aholisining so'zlashuv tili hisoblanib, hozirda ushbu tilda 50 millionga yaqin aholi muloqot qiladi. O'zbekistonning 80 % aholisi o'zbek tilini ona tili deb bilsa, mamlakat tashqarisida, O'rta Osiyo davlatlari hududida hamda jahonning turli mintaqalarida

<sup>14</sup> Website: <http://www.unesco.org/culture/en/endangeredlanguages>

Interactive atlas: <http://www.unesco.org/culture/languages-atlas>

<sup>15</sup> Kibbee D.A. Language policy and linguistic theory // Languages in a globalizing world. – Cambridge, 2003. – P. 47–57.

ushbu tilda muloqot qiluvchi ko‘plab etnik guruhlar istiqomat qiladi. Shuningdek, o‘zbek tili Afg‘onistonning rasmiy tillaridan biri hisoblanadi.

Bobning “Mustaqillik arafasida O‘zbekistondagi lisoniy vaziyat” nomli ikkinchi bo‘limida mustaqillik arafasida O‘zbekistondagi lisoniy vaziyat va til muammolari, istiqloldan avvalgi yillardagi o‘zbek tilining holati, tilga bo‘lgan e’tiborning o‘zgarib borish omillari, istiqlol arafasida til siyosati, o‘zbek jamoatchiligining til erkinligi yo‘lidagi harakatlari tahlilga tortilgan.

1985-yildan so‘ng jamoatchilik munosabatidagi o‘zgarishlar sotsiolingvistik muammolarni yangicha tadqiq usulida tekshirishni talab qildi va qarashlarning o‘zgarishiga ta’sir etdi. Ayniqsa, 1987–1988-yillarda tadqiqotchilar obyektiv tahlil qilishda ma’lum bir moyillikni boshdan kechirdilar. 1989–1990-yillarda Respublika va mintaqalarda taraqqiyot yanada yuksaldi, sotsiolog olimlarning o‘rnini, asosan, havaskorlar (yozuvchilar, publisistlar va siyosatchilar) egallashgan.

“Bolsheviklar”ning 74 yil davomida birlashtirilgan va o‘zgarmas milliy til siyosati ushbu davrga kelib qayta ko‘rib chiqilish zaruratiga ega edi. 1991-yildan keyin vaziyat yanada keskin tus oldi. Oldingi yillardagi masalalar haligacha yechilmagan, bu davrga kelib esa yangi muammolar yuzaga chiqqan edi. Ushbu davrga kelib ittifoq tarkibidan mustaqil bo‘lib chiqqan davlatlar adabiy me’yor va yozuv masalalarida ham o‘z siyosatini yuritmoqda edilar. Tabiiyki, bu holatda markaz tomonidan rus tilining mavqeyini saqlab qolishga qaratilgan harakatlar olib borildi. Ammo ittifoq tarkibida ko‘pmillatlilik va ko‘ptillilik muhiti bo‘lganligi uchun yagona til siyosatini yuritish qiyinchilik tug‘dirgan. 20-yillarda sobiq Ittifoq xalqlari tillaridan bir nechasi rivojlangan adabiy me’yor va yozuvga ega edi. T.M. Garipov va A.N. Garkavets<sup>16</sup>, L.M. Zak va M.I. Isaevning<sup>17</sup> tadqiqotlarida ushbu masala yuzasidagi holatlar yoritilgan.

Shu tariqa federatsiya tarkibidagi tillar turli xil ko‘rinishlarda rivojlanib bordi va mustaqillik yo‘liga chiqqan mamlakatlar o‘z til siyosatlarini yurita boshladilar. Tilni tadqiq etish turli tomonidan atroflicha olib borila boshladi. Ayniqsa, jamoatchilik harakatlari til masalasida ilm bilan integratsiyalashdi hamda bu qator ijobiy natijalarga erishilishida muhim rol o‘ynadi. Tilshunoslarning jiddiy harakatlarini ham qayd etish lozim. J. Edvard til masalalariga to‘xtalib shunday fikr bildirgan edi: “Tilni rejalshtirish – birinchi navbatda, sotsiologik vazifa, unda tilshunoslarning roli muhim, ammo bu juda ehtiyyotkorlikni talab qiladi”<sup>18</sup>. O‘zbek tilining taraqqiyotida, yuqorida mulohazada qayd etilganidek, tilshunoslarning harakatlari va sotsiologik vaziyat alohida rol o‘ynadi.

Bobning “O‘zbekistondagi lisoniy vaziyatni sotsiolingvistik o‘rganish muammolari” deb nomlangan uchinchi bo‘limida istiqlol davrida O‘zbekistondagi lisoniy vaziyat, uning sotsiolingvistik o‘rganilganlik darajasi, bu borada yuzaga kelayotgan muammolar, mustaqillik yillarida mamlakat lisoniy manzarasidagi

<sup>16</sup> Гарипов Т.А., Гаркавец А.У. Национально-русское двуязычие в Урало-Поволжье. Средней Азии и Казахстане. // Исследования языковых систем в синхронии и диахронии. – М., 1991. – С. 61.

<sup>17</sup> Зак Л.М., Исаев М.И. Проблемы письменности народов СССР в культурной революции. // Вопросы истории. 1966, – № 2. – С. 4.

<sup>18</sup> Edwards J. Multilingualism. – London and New York: Routledge, 1994. – P. 83–84.

o‘zgarishlar, o‘zbek tili va yurtimizda mavjud tillarning O‘zbekiston lisoniy qiyofasidagi o‘rni hamda ahamiyati ochib berilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat istiqomat qilishi manbalarda qayd etilgan. Bularning necha foizi qaysi tilda so‘zlashishi borasida turli statistik ma’lumotlar beriladi. Tadqiqotimiz jarayonida ushbu masalaga oydinlik kiritishga harakat qildik. Respublikamizda hozirgi kunda 139 ta milliy-madaniy markaz o‘z faoliyatini olib bormoqda, ular tarkibidagi millatlardan 15–20 foizining tili o‘zaro farqlanadi. Qolganlari lahja, sheva nuqtayi nazaridan bir-biriga yaqin bo‘lgan tillardan foydalanuvchi millatlarning tillaridir. Ammo istiqomat qiluvchi millatlar madaniyat, dunyoqarash, urf-odat jihatdan ancha yaqinlashib ketgan, ayrim o‘rinlarda farqli jihatlar ham ko‘zga tashlanadi. Mamlakatimizda o‘zbek millati bilan bir tan-u bir jon bo‘lib yashab kelayotgan millatlar sirasiga tojik, rus, qozoq, qirg‘iz, turkman, turk, uyg‘ur, tatar singari millatlar kiradi.

O‘zbekistonning lingvistik muhiti keng, unda bir necha til alohida ahamiyat kasb etadi. Quyida O‘zbekistonda eng ko‘p istiqomat qiluvchi millatlar tilidan ayrimlarining mamlakatimizning lisoniy vaziyatida tutgan o‘rniga e’tibor qaratamiz. Ana shunday millatlardan biri – qirg‘iz millati. Ushbu millat o‘zbeklar bilan birga qadim davrlardan beri yonma-yon istiqomat qilib kelmoqda. Ikki xalqning tillari ham o‘zaro yaqinlik kasb etadi. “Yurtimizda 271 mingdan ortiq qirg‘iz yashaydi. Ushbu millat vakillari respublikamizning Andijon, Jizzax, Sirdaryo, Namangan, Farg‘ona viloyatlarida istiqomat qilib kelishmoqda”<sup>19</sup>.

Mamlakatimizning lisoniy qiyofasida turkman millati tili ham alohida ahamiyatga ega. “Hozirda yurtimizda 200 mingga yaqin turkman istiqomat qiladi”<sup>20</sup>.

“Bugungi kunda O‘zbekistonda o‘zbeklar bilan 1,5 milliondan ortiq tojik yashaydi. Ushbu millat vakillari respublikamizning Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Navoiy, Buxoro, Namangan, Toshkent, Farg‘ona viloyatlarida istiqomat qilib kelishmoqda”<sup>21</sup>.

O‘zbekistonda qozoq tili ham keng tarqalgan. “Hozirgi kunda O‘zbekistonda 800 mingdan ortiq qozoq istiqomat qiladi. Bu qozoq etnosining Qozog‘iston tashqarisida, MDH mamlakatlarida yashaydigan eng yirik qismidir”<sup>22</sup>. Respublikamizning Qoraqalpog‘iston, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Xorazm, Sirdaryo va Toshkent viloyatlarida ushbu millat vakillari yashab kelmoqda. Aytish mumkinki, yuqorida keltirilgan millatlar tili mamlakatimizning lisoniy tarkibida katta ulushga ega.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **“Mustaqillik davrida O‘zbekistonda til siyosati, alifbo va imlo masalalari”** deb nomlangan. Bobning “O‘zbekistonda yangi til siyosatining shakllanishi” sarlavhali birinchi bo‘limida O‘zbekistonda yangi til siyosatining shakllanish omillari, istiqlol davri til siyosati, til siyosatidagi muammolar, til siyosatining zamonaviy taraqqiyot modellari, Respublikada til taraqqiyoti yo‘lida qabul qilinayotgan me’yoriy-huquqiy hujjatlar, ularning ilmiy- amaliy ahamiyati tahlil etilgan.

<sup>19</sup><http://interkomitet.uz/qomita-haqida/milliy-madaniy-markazlar/o-zbekiston-qirg-iz-milliy-madaniy-markazi/?lang=uk>

<sup>20</sup><http://interkomitet.uz/qomita-haqida/milliy-madaniy-markazlar/respublika-turkman-madaniy-markazi/?lang=uk>

<sup>21</sup><http://interkomitet.uz/qomita-haqida/milliy-madaniy-markazlar/respublika-tojik-milliymadaniy-markazi/?lang=uk>

<sup>22</sup><http://interkomitet.uz/qomita-haqida/milliy-madaniy-markazlar/o-zbekiston-qozoq-milliy-madaniy-markazi/?lang=uk>

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonuni 30 moddadan iborat, unga “millatlararo til” tushunchasi kiritilgan va bu rolni rus tili bajarishi aks ettirilgan edi. Shuningdek, ushbu qonunning 1-moddasida: “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir”<sup>23</sup>, deb belgilab qo‘yilgan bo‘lsa-da, keyingi o‘rinlarda mamlakatda o‘zbek tili bilan bir qatorda rus tili ham bir maqomda qo‘llanishi mumkin ekanligi qayd etilgan edi. Istiqlol qo‘lga kiritilgach, yillar davomida ushbu qonun amalda bo‘lib keldi. Davlat ishlarida ikki til teng maqomda qo‘llandi. Keyinchalik, o‘zbek tilining nufuzini ko‘tarish ehtiyoji yuzaga keldi. Buning natijasida 1995-yil 21-dekabrda ushbu qonun yangi tahrirda zamon talablari asosida tahrirlanib, qayta qabul qilindi. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni<sup>24</sup> 24 moddadan iborat bo‘ldi.

Mamlakatimizda til taraqqiyoti bilan bog‘liq amaliy harakatlar bir damga ham susaymadi. 2019-yil 21-oktyabrda ona tilimiz taraqqiyoti yo‘lidagi eng muhim tarixiy hodisalardan biri ro‘y berdi, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”<sup>25</sup>gi Farmoni imzolandi. Ushbu Farmon bilan bo‘gliq ravishda, 2019-yil 12-dekabrda O‘zR VMsining “Davlat tilini rivojlantirish departamenti to‘g‘risidagi” Nizomni tasdiqlash haqida”<sup>26</sup>gi qarori, 2020-yil 29-yanvarda “O‘zR VMsining “O‘zR VM huzuridagi atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”<sup>27</sup>gi Qarori qabul qilinib, endilikda, O‘zR VM qoshida O‘zbekiston Respublikasining Davlat tilini rivojlantirish departamenti hamda O‘zR VM huzuridagi atamalar komissiyasi faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Bobning ““Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi, ahamiyati va takomillashtirilish zarurati” nomli bo‘limida O‘zbek tilining rasmiy til maqomiga erishishi va buning o‘zbek davlatchilagini belgilashdagi roli, Davlat tili haqidagi qonunning qabul qilinishi, ushbu qonunning ahamiyati, xalqimiz hayotida tutgan o‘rni, Davlat tili haqidagi qonunning takomillashtirilish zarurati tadqiq etilgan.

Ma’lumki, mamlakatimizda “Davlat tili haqida”gi Qonun bиринчи бор 1989-yil (“Davlat tili to‘g‘risida”) qabul qilingan va undagi moddalar o‘scha davr muhitidan kelib chiqib tuzilgan. Istiqlol yillarida, ya’ni 1995-yil ushbu Qonun yangidan tahrir qilindi va uning moddalarida, o‘zbek tiliga – mustaqil O‘zbekistonning rasmiy tili sifatida qaralib, kuzatuv va tajribalar asosida yanada takomillashtirildi. Quyida “Davlat tili haqida”gi Qonunning ikkala tahririga to‘xtalamiz va to‘ldirilgan o‘rinlarning ayrimlariga e’tibor qaratamiz.

<sup>23</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonuni. 1989-yil 21-oktabr. <https://lex.uz/uz/docs/-109394?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

<sup>24</sup> “O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili haqida”gi Qonuniga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 1995-yil 21-dekabr. <https://lex.uz/uz/docs/-121051?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

<sup>25</sup> “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2019-yil 21-oktabr. <https://lex.uz/uz/docs/-4561730?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

<sup>26</sup> “Davlat tilini rivojlantirish departamenti to‘g‘risida”gi Nizomni tasdiqlash haqida”gi O‘zR VMning Qarori. 2019-yil 12-dekabr. <https://lex.uz/uz/docs/-4640226?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

<sup>27</sup> “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zR VMning Qarori. 2020-yil 29-yanvar. <https://lex.uz/uz/docs/-4717157?query=o%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

1989-yil qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili to'g'risida"gi Qonuni 30 moddadan iborat, unda o'zbek tilining rasmiy maqomi belgilangan. Ammo Qonun moddalarida o'zbek tili mavqeyi mamlakatdagi boshqa tillardan oshirilmasligi ko'rinar edi. Shuningdek, millatlararo til sifatida rus tili tanlanishi ham aniq belgilab berilgan. 1995-yil yangi tahrirda qabul qilingan "Davlat tili haqida"gi Qonunda ushbu masalalar bartaraf etilgan va belgilangan me'yorlar yaxlitlangan, moddalar soni qisqartirilib 24 moddaga tushirilgan.

1989- va 1995-yillarda qabul qilingan Qonunlar moddalarining qiyosiy tahliliga ko'ra 1995-yilgi tahrirda qator o'zgarishlar mavjudligi kuzatiladi. Jumladan, Qonunning 1-moddasi 5 banddan 1 bandgacha tushirilib, yaxlit me'yor aniq belgilangan. Qonun hujjatining boshqa bandlari ham qayta ishlanib, o'zbek tilining huquqiy me'yorlari oldingisiga qaraganda aniqroq, boshqa tillarning ta'siridan xoli holda belgilangan. Ushbu tahrirga ham keyingi yillarda boshqa qonun va qarorlarga bog'liq ravishda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib kelindi.

Bobning "Mustaqillik davrida O'zbekistonda alifbo va imlo masalalari: muammolar va yechimlar" deb nomlangan uchinchi bo'limida o'zbek-lotin alifbosini isloh etish zarurati, o'zbek tili imlo me'yorlarini takomillashtirish masalalari, o'zbek-lotin alifbosi va imlo qoidalaridagi muammolar hamda bu boradagi yechimlar muhokama etilgan.

Mustaqillikning ilk yillarida yurtimizda amalda kirill alifbosidan foydalanilar edi. Keyinroq lotin yozuviga o'tish masalasi kun tartibiga qo'yildi. Buning qator sabablari mavjud edi. Jumladan, o'zbek tilining imkoniyatlari kirill alifbosidan ko'ra lotin yozuvida to'laroq, kengroq ifodalanishga ega. Shunday qilib, mamlakatimizda 1993-yil 2-sentyabrda "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni<sup>28</sup> qabul qilindi. Unga ko'ra, yurtimizda lotin alifbosida faoliyat olib borish belgilangan edi.

O'zR Oliy Majlisi Qarori bilan 1995-yil 6-mayda O'zbekiston Respublikasining "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Qonuniga o'zgartirishlar kiritish haqida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni<sup>29</sup> e'lon qilinib, unga muvofiq ayrim bandlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan.

1995-yil xuddi shu sanada O'zR Oliy Majlisining "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalg'a kiritish tartibi haqidagi O'zR Oliy Majlisi Qaroriga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"<sup>30</sup>gi Qarori e'lon qilindi. Unga ko'ra, oldingi nashrdagi ayrim bandlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Shuningdek, "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalg'a kiritish tartibi haqida"gi O'zR OK Qarorining 3-bandida: "1995-yil davomida o'zbek orfografiyasining yangi qoidalarini ishlab chiqsin va O'zR VM muhokamasiga taqdim

<sup>28</sup> "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 1993-yil 2-sentyabr. <https://lex.uz/uz/docs/-112286?query=o%27zbek%20tili%20daylat%20tili>

<sup>29</sup> "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 1995-yil 6-may. <https://lex.uz/uz/docs/-189432?query=o%27zbek%20tili%20daylat%20tili>

<sup>30</sup> "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalg'a kiritish tartibi haqidagi O'zR OK Qaroriga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi O'zR Oliy Majlisining Qarori. 1995-yil 6-may. <https://lex.uz/uz/docs/-189432?query=o%27zbek%20tili%20daylat%20tili>

etsin”<sup>31</sup>, – deb belgilab qo‘yilgan edi. Shunga muvofiq, 1995-yil 24-avgustda O‘zR VMning “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari tasdiqlash haqida”<sup>32</sup>gi Qarori e’lon qilindi. Unga ko‘ra, o‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari tasdiqlandi.

Lotin yozuvini takomillashtirishga qaratilgan ishlar 1993-yildan 1996-yilga qadar jadal sur’atda davom etdi. Keyinchalik, o‘zbek-lotin alifbosida muammolar yuzaga chiqdi. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi yuzasidan filologiya fanlari doktori, professor Sh.Sirojiddinov shunday fikrlarni bildirgan edi: “Kishilarning yozma savodxonligi darajasini oshirishda alifboning mukammal bo‘lishi juda katta ahamiyatga ega. Nazarimda, bugungi kunda mazkur alifboni yanada mukammallashtirish davr talabiga aylandi. Bu alifbodagi ayrim ziddiyatli holatlar bilan bog‘liq”<sup>33</sup>.

Dissertatsiyaning uchinchi bobи “**Mustaqillik davrida O‘zbekistonda bilingvizm va pluralingvizm**” deb nomlangan. Bobning “Jahon tilshunosligida bilingvizm, pluralingvizm hodisalarining tadqiqi hamda mustaqillik yillarda O‘zbekistonda tarqalishi va o‘rganilishi” nomli birinchi bo‘limida bilingvizm, pluralingvizm hodisalari va ularning jahon tilshunosligidagi tadqiqi, tipologik xususiyatlari va turlari, ikkitillilik va ko‘ptillilikning O‘zbekistonda tarqalganlik darajasi, mustaqillik yillardagi holati, mamlakatimizdagi bilingvizm, multilingvizm hodisalarining o‘rganilishi, Respublikamizda tarqalgan turlari, muammolari tadqiq etilgan.

